



BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ILMIIY-PEDAGOGIK JIHATLARI

Nazirov U.Q.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedراسи katta o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: innovatsion yondashuv, akmeologik yondashuv, kreativlik, pedagogik mahorat, metdodik tayyorgarlik.

Ключевые слова: инновационный подход, акмеологический подход, творчество, педагогическое мастерство, методическая подготовка.

Key words: innovative approach, acmeological approach, creativity, pedagogical skills, methodological training

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash va loyihalashtirish, maqsad va natijani muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Demak, har bir o'qituvchi o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish uchun ma'lum darajada o'z dunyoqarashiga, tafakkuri, tasavvuri va mavjud bilimiga, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga asoslanadi. O'qituvchilarda o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish yo'nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi lozim. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish va o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, o'qituvchilarda o'z kasbiga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga qiziqish shakllanadi, bu o'z navbatida o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish ya'ni mustaqil o'rganish, o'zo'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga, bu orqali o'qituvchilarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchilarni o'z faoliyatida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish, o'qituvchilar jamoasida obru-e'tibor qozonish, o'zini o'zi boshqarish va rivojlantirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi



vositalardan biri muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj bo‘lib, bu ma’lum bir vazifani mas’uliyat bilan bajarish orqali ko‘zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi – o‘qituvchini o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish ehtiyoji hisoblanadi. Akmeologik yondashuv nuqtai nazaridan o‘z-o‘zini anglash, o‘zini takomillashtirish, ichki resurslarni boyitish va qiyinchiliklarni ongli ravishda yengib o‘tish qobiliyati (tashqi va ichki) o‘qituvchi shaxsining rivojlanish modellari va xususiyatlari sifatida ajralib turadi. Shunday qilib, shaxsiy rivojlanishning yetakchi va hal qiluvchi omili shaxsning ijodiy tashabbusi va mustaqilligi bo‘lib, bunda asosiy rol o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun motivga egaligi hisoblanadi. Shaxsni takomillashtirish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishida o‘zini o‘zi anglash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilarning o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish uchun o‘qituvchiga xos bo‘lgan akmeologik pozitsiyaning mavjudligi (uning shaxsiy faoliyati), moslashuvchanlik (atrofdagi voqelik shartlaridan shaxsiy rivojlanish uchun foydalanish qobiliyati), jamiyatda o‘z salohiyatini amalga oshirish istagi, o‘zini anglashi va shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish orqali o‘z kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirishga tayyorligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kasbiy faoliyat subyekti sifatida rivojlanishda subyektivlik, mutaxassisning malakasi va uning shaxsiy yetukligi kabi tendensiyalar ajralib turadi. O‘qituvchi professionallikni rivojlantirishga kasbiy rivojlanishning bosqichlari va darajasini (o‘z taqdirini o‘zi belgilash, moslashtirish, o‘zini namoyon qilish, o‘zini o‘zi anglash) egallash orqali erishadi. O‘qituvchilarga kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishda tashqi va ichki sharoitlar ta’sir qiladi (o‘qituvchining o‘zi qobiliyatlari va moyilligi, atrof-muhitning xususiyatlari – oilaviy, kasbiy, o‘zini anglash xususiyatlari va aks etuvchi kompetensiya).

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni tizimli va uzviy amalga oshirishlari muhim hisoblanadi:

- o‘zini o‘zi rivojlantirishga intilish;
- hayotiy va kasbiy tajribalarni o‘zlashtirishga intilish;
- ta’lim berish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo‘lish;
- kasbiy faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish va o‘qitish jarayonini takomillashtirish uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq etish. Asosiysi, o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirish va shu asosda uning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirishga erishish mumkin. O‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj, bir tomondan, o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati, uning ijtimoiy roli, ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyatning doimiy o‘zgarib turadigan sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan “hayot davomida o‘qish” tamoyili bilan belgilanadi. O‘z-o‘zini



rivojlantirish uzluksizlik, universallik, maqsadga muvofiqlik, integrativlik, umumiylik, individuallashtirish, o‘zaro bog‘liqlik va doimiylik, past darajadan yuqori darajaga o‘tishning doimiyligi, o‘zgaruvchanlik kabi tamoyillarga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarorida “Ta’lim sifatini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish, bitiruvchilarning bandligini ta’minlash, pedagog xodimlar va olimlarning faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan faoliyat ustidan ta’sirchan parlament nazoratini yo‘lga qo‘yish” kerakligini alohida takildlaganlar. O‘qituvchilik sharaffi, lekin juda murakkab kasbdir. Shunday ekan jamiyatda o‘qituvchi ijtimoiy faol, ijodkor, mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan, kasbiy bilim hamda malakagaega bo‘lgan mutaxassis bo‘lib, jamoada o‘z qobiliyati, insonparvarlik fazilatlarini, obro‘-e’tibori va yuksak madaniyati bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish jarayonida o‘qituvchilarda yuksak kasbiy maxoratni rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni, o‘qituvchiga xos muxim sifatlarni takomillashtirish asosida o‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishga qaratilgan alohida pedagogik vazifalar yuzaga kelmoqda. “Faoliyat – 1) anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) harakatlar yig‘indisi; 2) shaxs tomonidan tabiiy, ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi. Pedagogik faoliyat – o‘qituvchi tomonidan aniq maqsadlarga muvofiq tashkil etiladigan kasbiy harakatlar majmui. O‘qituvchi tomonidan pedagogik faoliyat (o‘qituvchi mehnati) ning tashkil etilishi kasbiy mehnatning tashkiliy-amaliy jihatdan oqilona uyushtirilishini ifodalaydi. Pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish talab etiladi” Psixologiya ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, insonning fe’l-atvori shakllanishi, uning shaxsiyatining xususiyatlari nafaqat atrof-muhitga bog‘liq, balki o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati bilan yuqori darajada belgilanadi”, psixologik tadqiqotlar natijalari o‘qituvchi o‘z shaxsini faol ravishda qurishi har bir o‘qituvchining shaxsiyatini shakllantirishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi, o‘z tashkilotchilik darajasini oshirishi va o‘quvchilarning tashkilotchiligini yaxshilashi mumkin degan xulosaga olib keladi. Insoniyat o‘z tajribasini mustahkamlashning yaxshi rivojlangan vositalariga va birinchi navbatda tilga ega bo‘lganligi sababli, biz bilimlarimizning eng murakkab yutuqlarini bir-birimizga (avloddan-avlodga) etkazishimiz mumkin. Biz qancha ko‘p o‘rgansak, bu bilim elementlari, ijtimoiy tajribaning bu donalari, ijtimoiy amaliyot insoniyat ixtiyorida bo‘ladi. “Har bir inson voqelikni o‘z sezgilari bilan idrok etadi, lekin bu voqelikni boshqa odamlar, butun insoniyat bu haqda nimalarni bilishini



o'rganish orqali bila boshlaydi. F.Engelsning fikricha, inson sezgilari faoliyati albatta fikrlash faoliyati bilan qo'shilib ketadi" O'qituvchining birinchi guruh nazariy tamoyillari insonning intellektual faoliyati (intellektual xulq-atvori) xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Agar shartli refleks avtomatik bo'lsa, unda intellektual harakat xatti-xrakatlarning bir nechta usullarini tanlashni nazarda tutadi, uni bajarish uchun biz o'zimizni vazifaga yo'naltirishimiz, xatti-harakatlarimizning bunday shakllari va vositalarini belgilash uchun uni tahlil qilishimiz kerak shunda eng qisqa yo'l bilan hal qilinishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars jarayonida o'z bilimini, pedagogik mahoratini ko'rsata olishi, o'z kreativligini namoyon qila olishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy taassurot uyg'ota olishi, darsga ijodkorona yondashuvi va turli xildagi zamonaviy metodlardan foydalanib darsni sifatli va mazmunli tarzda olib borishi hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda. Shunday ekan, har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z ustida tinmay ishlashi, pedagogik mahorat ustida tinmay ishlashi, kreativlik nima ekanligini anglashi va dars jarayoniga ijobiy qo'llashi zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son qarori
2. Ғозиев Э., Мамедов К. Касб психологияси. –Т.: 2003. Б.57.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. –Т.: Молия, 2003. –Б. 54–56.
4. Толипов Ў. Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ҳамда малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари / Монография. –Т.: Фан, 2004.Б.73–80
5. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). –Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008. –Б. 16–18.
6. М. Ж. Муталипова Педагогик маҳорат модули бўйича ўқув услубий мажмуа Т., 2017. 140 бет.

РЕЗЮМЕ

Bu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish usullari va vositalari haqida fikrlar yoritilgan. Maqolada tavsifiy bayon etish metodidan foydalanilgan. O'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish har doimgi dolzarb masala hisoblanadi. Maqola oxirida xulosa berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны методы и средства профессионального развития учителей начальных классов. В статье использован описательный метод. Повышение педагогического мастерства учителей всегда является актуальным вопросом. Заключение приведено в конце статьи.

SUMMARY

This article describes methods and means of professional development for primary school teachers. The article uses a descriptive method. Improving the pedagogical skills of teachers is always a pressing issue. The conclusion is given at the end of the article.